



ORAL FOLK ART IN UZBEKISTAN'S NEW STAGE OF DEVELOPMENT: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Zukhra Kimsanboyeva

PhD student

Namangan State Technical University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: zuhrakimsanboyeva@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: secularism, secular statehood, democratic governance, New Uzbekistan, social state, oral folk art, social significance, socio-democratic principles, prosperity.

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: This article explores one of the most pressing issues in the social sciences today: the spiritual and moral development of the younger generation, based on the rich national cultural heritage, traditions, and values, during the new stage of societal development. Special emphasis is placed on recent legislative measures adopted by the Government of Uzbekistan aimed at reviving Uzbek oral folk art, promoting the nation's spiritual wealth, and incorporating it into education and upbringing. The article argues that oral folklore is a fundamental component of national cultural heritage, a vehicle for moral advancement, a means of preserving national and cultural identity, and a tool for asserting presence on the global stage. It is further maintained that constitutional reforms in Uzbekistan's democratic state-building process can lay a strong foundation for a national renaissance through spirituality and enlightenment.

O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA XALQ OG'ZAKI IJODI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Zuhra Kimsanboyeva

tayanch doktorant

Namangan davlat texnika universiteti

Namangan, O'zbekiston

E-mail: zuhrakimsanboyeva@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: dunyoviylik, dunyoviy davlatchilik, demokratik davlatchilik, Yangi Oʻzbekiston, ijtimoiy davlat, xalq ogʻzaki ijodi, ijtimoiy ahamiyat, ijtimoiy-demokratik tamoyillar, farovonlik.

Annotatsiya: Maqola jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida boy milliy madaniy meros, anʼana va qadriyatlar asosida yosh avlodni har tomonlama maʼnaviy-maʼrifiy barkamolligi ijtimoiy fanlarda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, keyingi yillarda oʻzbek xalq ogʻzaki ijodini tiklash, millatning maʼnaviy boyliklarini targʻiboti, taʼlim va tarbiya sohasida qoʻllash yuzasidan Oʻzbekiston hukumatining meʼyoriy aktlari qabul qilinmoqda. Shu bois maqolada xalq ogʻzaki ijodi milliy madaniy meros, ajdodlarning avlodlarga qoldirgan maʼnaviy yuksalish omili, milliy-madaniy oʻzlikni saqlab qolish, jahon siyosiy sahnasida oʻzini namoyon etish omili ekanligini asoslangan. Zero, Oʻzbekistonda demokratik davlatning konstitutsion islohotlari milliy-maʼnaviyat va maʼrifat orqali milliy Uygʻonishga mustahkam poydevor qoʻyishi mumkin.

**УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО В НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ
УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

Зухра Кимсанбоева

поддержка докторанта

Наманганский государственный технический университет

Наманган, Узбекистан

E-mail: zuhrakimsanboyeva@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: светскость, светское государство, демократическое государство, Новая Узбекистан, социальное государство, устное народное творчество, социальная значимость, социально-демократические принципы, благополучие.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные социально-гуманитарные проблемы, связанные с духовно-нравственным воспитанием подрастающего поколения на основе богатого национального культурного наследия, традиций и ценностей в условиях нового этапа развития общества. Особое внимание уделено усилиям правительства Узбекистана по возрождению устного народного творчества узбекского народа, продвижению духовных богатств нации и их применению в сфере образования и воспитания. Автор аргументирует, что устное народное творчество является неотъемлемой частью национального культурного наследия, фактором духовного развития и важным механизмом сохранения национально-культурной

идентичности, а также инструментом самоутверждения на международной арене. Конституционные реформы демократического государства в Узбекистане могут стать прочной основой для национального Возрождения через духовность и просвещение.

Kirish

Yangi O'zbekistonda dunyoviy, ijtimoiy-demokratik davlatchilik bugungi kunda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy tamoyillari milliy-ma'naviy madaniyat, milliy an'ana va qadriyatlarga tayanadi. Shu bois, Milliy taraqqiyot strategiyasi san'at, adabiyot, xalq ijodi muammolarini yoshlarga oid davlat siyosati doirasida e'tirof etilmoqda. Keyingi yillarda respublika miyosida milliy xalq og'zaki ijodi an'ana va qadriyatlarni tiklash borasida O'zbekiston hukumati tomonidan ta'lim va tarbiya sohasi bilan birga milliy turmush tarzimizni tarkibiy qismiga Navro'z bayrami aylangan bo'lsa, "Alpomish" dostoni va milliy shashmaqom festivallari o'tkazilmoqda. O'zbek xalq og'zaki ijodining ijtimoiy tarbiyaviy qimmati O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Xalq og'zaki ijodi – bu millatning ko'p asrlik boyligi bo'lib, u bizning jamiyatimizda adolat, tenglik va hurmat kabi qadriyatlarni targ'ib etish uchun zarur vositadir" ta'kidlandi [1].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o'zbek xalqi og'zaki ijodi "folklor" ma'nosida keng qo'llanilib, olimlar tomonidan "...xalq og'zaki ijodi jamiyatni ijtimoiy jihatdan birlashtiruvchi, adolat va tenglik kabi demokratik qadriyatlarni rivojlantiruvchi asosiy vosita" sifatida ta'riflanadi. [2, 92 b]. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodi nafaqat o'tmish, balki ijtimoiy yangilanish sari jamiyatning ma'naviy drayveri bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi yozuv paydo bo'lgunga qadar milliy madaniyatning ajdodlardan avlodlarga vorisiylik bilan milliy madaniyatni hayotiyligini ta'minlagan omil bo'lgan. Bu hol millatning og'zaki badiiy ijodida odamlarning orzu-intilish, quvonch va tashvishlarini g'oyaviy-badiiy omuxsasi bilan nafosat va farosat falsafiy tafakkurini rivojlantirgan. Shu ma'noda millatning milliy dunyoqarashi, fe'r atvor menlitetini anglashda folklor muhim ahamiyat kasb etadi. Biz fikrimizni muammo yuzasidan yetakchi olimlarning fikr-mulohazalari bilan dalillaymiz [3, 85 b].

Adabiyotlar tahlili

Mazkur muammoning ilmiy taxlil va talqinlarida O'zbekiston hukumati Asosiy Qonuni va yurtboshimizning asar va nutqlarida belgilangan vazifalar masalaning ilmiy tadqiqida dasturiy me'yoriy asosi qilib olindi. [1, 6 b].

O'zbek xalq og'zaki ijodiy, milliy folklor masalasi ijtimoiy fanlarda fanlararo adabiyot, san'at, madaniyatshunoslik, nafosat falsafasi, tarix va milliy etnik taraqqiyot nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Biz adabiyotlarni taxlillariga tayani muammoning o'rganilishi ikki bosqichga

mustaqillik va milliy taraqqiyot strategiyasi kontekstida tadqiq etilganligini toifalashtirdik. Birinchi bosqichga o'zbek xalq og'zaki ijodi milliy epos, badiiy ijodiy tafakkur nuqtai nazardan ilmiy va dissertatsiya tadqiqotlari amalga oshirilgan [4; 11]. Ikkinchi guruh adabiyotlarda o'zbek xalq og'zaki ijodiy olimlar tomonidan demokratiya va inson huquqlari, ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir etuvchi ta'lim va tarbiya texnologiyalari bilan uyg'un holda yoritishga erishilgan [1; 2; 8; 9].

Yangi O'zbekistonda dunyoviy, ijtimoiy-demokratik davlatchilikni taraqqiyotida xalq og'zaki ijodining ijtimoiy ahamiyati o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan faol tadqiq etilganligini ham yodda saqlash darkor. Biz Hodi Zarifning xalq og'zaki ijodining tarixiy ildizlari, V. S. Tokarevning o'zbek folklorshunosligi ijtimoiy masalalari, M. Jo'rayevning «Xalq dostonlari va ularning ma'naviy ahamiyati», A. Sa'dullayevning folklorshunolik davlatchilikka ta'siri, O. Matyoqubovning «O'zbek xalq dostonlari: tarix va hozirgi kun», B. Qo'chqorovning xalq dostonlarida ijtimoiy adolat va inson huquqlari g'oyalari kabi adabiyotlarni nazarda tutmoqdamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbek xalq og'zaki ijodi millatning ma'naviy boyligi, xalqning turmush tarzi va nafosat va farosat sohasidagi erishgan donishmandlik saboqlari sifatida ijtimoiy tarixiy yondashuv asosida tadqiqi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga xalq og'zaki ijodining tadqiqi yoshlarda vatanparvarlik milliy ozodlik harakati, mardlik va jasurlik, bashariyat tomonidan ma'qullangan barkamol inson g'oyalarini qamrab olgani uchun milliy g'oya va mafkuraviy tamoyillarda tadqiq etildi. Shu bilan birga muammo ijtimoiy falsafa tamoyillarida umumiylik, alohidalik va xususiylik tamoyillarida taxlil etildi.

Muammoning sotsiologik yondashuvi xalq og'zaki ijodining ijtimoiy guruhlararo kommunikatsiya va ijtimoiy birdamlik, tarixiy esa xalq og'zaki ijodining taraqqiyot tendentsiyalarini, millatning milliy "etnik hayot darsligi" nuqtai nazardan noyob manba yodgorlik sifatida taxlillarni talab etadi. Tadqiqotda umumilmiy uslubiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

O'zbek xalq og'zaki ijodi o'z mohiyatiga ko'ra millatning milliy badiiy tafakkuri, xalq milliy o'zligini ifoda etuvchi nomoddiy boyligi, olamni nafosatini badiiy og'zaki ijodiy nozik torlarda so'z fikr va mulohazalar bilan yetkazib berishining vositasi hamdir. Shu bois o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos jihati nafosat va farosatning uyg'unligi, ilohiy qoidalar bilan hamohangligidir.

Milliy folklor millatning badiiy so'z bilan olamni bilish, uni ommaga yetkazishda xalqona lirika, qo'shik, kuy, poetik asar, so'z aytishuvi, lapar va askiya kabilarda o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda Farg'ona vodiylida askiya, qiziqchilik, qo'shiq va kuy, ya'ni musiqa madaniyati rivojlangan. Zarafshon vohasi, ayniqsa, Xorazmda qo'shiq va ktsuy, musitka o'zining eng yuksak cho'qqilariga chiqqan. Xalq og'zaki ijodining geografik o'ziga xoslik o'zbek xalqning tarixiy

taraqqiyotda dehqonchilik va sorvachilik, ovchilik kasb-kori bilan bog'liq deb o'ylaymiz. Chunki askiyachilik va qiziqchilik san'ati o'troq xalqlarga xosligini ijtimoiy taxlillarimiz tasdiqlamoqda.

Kishilik jamiyati tashqi olamni hissiy bilishda tabiatga munosabatga xatti-harakat, ovoz-tovush, quvonch va hasratni ehtirosli shaklda yetkazishga intilgan. Natijada, so'zlar predmetlarni anglatib, ishlab chiqarish ovoz signallari, ovozlardan kuy, unga mos xirom etish orqali raqs, quvonch va xasratdan kulgu va yig'i ovozlari hissiyotda shakllangan. Ibtidoiy odamda nutq yordamida so'zlardan burro-burro hissiyotni ifodalash imkoni hosil qilingan. Inson tafakkuri tashqi olamni in'ikosi bilan uni so'zlar orqali tabiiy manfaatlarni qondirishga harakati yuz bergan. Qabila a'zolari atrofda xavf-xatardan ogohlikka, ijobiy hodisadan xush kayfiyatni bildiruvchi tovush signallarini ishlab chiqqan. Shu bois so'z boyligi ortib, odamlarni ehtiyojlari, ayniqsa erkak va ayolning o'zaro bir-biriga ilohiy maylini qondirish instinkti hissiy yaqinlik bilan madaniylashgan. Qabila a'zolari o'z ajdodlarining ijtimoiy tajribalarini avlodlarga qoldirish uchun og'zaki idojiy to'qimalarini afsona va rivoyatlar shaklida qoldirgan. Bashariyatning yozuvgacha bo'lgan nomoddiy ma'naviy boyligi og'zaki bo'lgani uchun odamiylikning badiiy jihatdan olamni anglash ilmiy bo'lib shakllangan. Bu afsona va rivoyatlar har bir avlod o'tishi bilan mukammallashib, qo'shiq, kuy, ertak, rivoyatlarning yig'indisi – xalq og'zaki ijodi (folklor) sifatida qadriyatlashgan. Biz To'maris, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi vatanparvarlarning yurt uchun jonini fido qilishi kelgusi avlodlarga millatning barkamollik sari badiiy ijod namunalari shaklidagi san'at qaror topgan. Yirik adabiyotshunos olimlarimiz xalq og'zaki ijodi deganda "...xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari — hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni «folklor»ni tushunganlar [6, 7].

Yangi O'zbekistonda dunyoviy, ijtimoiy-demokratik davlatchilik tamoyillari milliy qadriyatlar va zamonaviylikning uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilmoqda. Milliy an'analarni saqlash bilan birga, global tendentsiyalarga moslashgan holda modernizatsiya jarayoni olib borilmoqda. Prezidentimiz o'zbek xalq og'zaki ijodining ijtimoiy jihatida «...biz adolat, tenglik, hurmat va erkinlik kabi fundamental demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga intilamiz», deb ta'kidlaydi [7, 12 b]. Xalq og'zaki ijodi – bu millatning ma'naviy boyligi, madaniy merosi va ijtimoiy birligining asosiy elementi hisoblanadi. U quyidagi jihatlarda o'z ahamiyatini namoyon etadi: Ma'naviy-axloqiy tarbiya xalq og'zaki ijodi orqali avloddan-avlodga vorisiylik asosida o'tadi. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasida xalq qo'shiq, afsona, maqol va matallarining o'zni muhimligi odillik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va mehr-oqibat kabi qadriyatlar aks etgan. Milliy to'y marosimlari, bayram va tantanalar an'anaga aylanib, xalq og'zaki ijodi orqali milliy

birlik va hamjihatlik fazilat sifatida qaror topadi. Shu bilan birga tarixiy xotira mazmuniga aylanib, milliy o'zlikni anglash va ratsional tafakkurga xizmat qiladi.

Xulosalar

Yangi O'zbekistonda xalq og'zaki ijodining ijtimoiy ahamiyati Taraqqiyot strategiyasining maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xalq og'zaki ijodi millatning ma'naviy boyligi, madaniy merosi va ijtimoiy birdamlikning muhim unsurlaridan biri sifatida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, tarixiy taraqqiyotda jamiyatni birlashtiruvchi demokratik qadriyatlar vazifasini ijrosi bo'lib qoladi. Ayni vaqtda, xalq og'zaki ijodi madaniy meros sifatida nafaqat milliy o'zlikni anglash, balki xalkning milliy donishmandligi, olamni anglash va o'zlashtirishning ijtimoiy nomoddiy tajribasi ham hisoblanadi.

Uchinchidan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'nalishlari doirasida xalq og'zaki ijodining ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish va uni ta'lim, tarbiya hamda madaniy siyosatga tadbiq etish muhim. Bu, o'z navbatida, demokratik jamiyatni mustahkamlashga, milliy an'ana va qadriyatlarning ijtimoiy-g'oyaviy poydevoridir.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-demokratik taraqqiyotida madaniy ko'priq va ijtimoiy birlashtiruvchi meros sifatida amaliyotga tadbiq etish millatning milliy identikligini saqlab qolish vositasi hamdir.

Adabiyotlar

1. Abdullayev S. Demokratik jamiyat va xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Ma'naviyat. 2019. -125 b.
2. Jumanioyov B. O'zbek xalq og'zaki ijodi va ijtimoiy-demokratik tamoyillar. - Toshkent: Ma'naviyat. - 2021. -232 b.
3. Jurayev F. Xalq og'zaki ijodi: Madaniyat, ijtimoiy tenglik va milliy birlashuv. – Toshkent: O'zbekiston. 2020. –134 b.
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1990. – B. 4-14.
5. Karimov U. Xalq og'zaki ijodi va uning ijtimoiy ahamiyati. O'zbekistonning madaniy rivojlanishi, -2021. –№ 23(1), –B. 60-70.
6. Madayev O O'zbek xalq og'zaki ijodi: o'quv qo'llanma. - T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. - 228 b.
7. Mirziyoyev S. Xalq og'zaki ijodining ijtimoiy roli . Yangi O'zbekiston. -2020. - 5 dekabr.
8. Soliyev A. Xalq og'zaki ijodining ijtimoiy ahamiyati. O'zbekistonning madaniy merosi, –2019. -№ 47(3), –B.120-130.
9. To'raqulov M. Xalq og'zaki ijodi: demokratik tamoyillar nuqtai nazaridan. – Toshkent: Fan. 2022. -222 b.
10. Qodirov R. Xalq og'zaki ijodi va ijtimoiy birlashuv. Madaniyat va jamiyat, –2021. –№ 14(3), -B. 45-55.
11. Xolmirmirzayeva S. Sh. O'zbek xalq eposidagi badiiy shartlilikning o'ziga xos xususiyatlari. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T.: ToshDU. 1990. -24 b.